

ZAMONAVIY RAHBARNING XUSUSIYATLARI**Qurbonova Norxol Yusufovna***"Nurli kelajak" mahallasi hokim yordamchisi termiz shahar*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy o'zbekiston taraqqiyotida yangi sahifaning ochilishi mamlakatimizdagi islohotlarning eng avvalo dunyo shu jumladan jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga mos holda amalga oshirilayotgani shuningdek zamonaviy rahbar qiyofasi va enerji uning zamon talablariga mos bo'lishi xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, demokratik islohotlar, intiluktual qobiliyat, vizual xotira, strategik boshqaruv, uslubi, emij, rahbar, boshqaruv*

Bir haqiqatni ishonch bilan aytishga barcha asoslarimiz bor "O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas" deb ta'kidlagan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Tarixdan ma'lumki insonlar boshqaradi yoki boshqariladi. Bu hayot sinovlarini faqat sabrli, bardoshli insonlarga matonat bilan yengib o'tadi. Kuchsizlar esa doim kimdir uni boshqarishga muhtoj bo'lib yashaydi. Shuningdek bizning O'zbekiston diyorini ham ko'p asrlar mobaynida turli shaxslar boshqarib kelgan. Bugungi kunda jamiyatimiz har sohada o'zgacha ko'rinish oldi. Buning asosiy sababi yangi O'zbekiston davlatini barpo qilib uni yanada rivojlantirishda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mustaqilligimizning 31 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida Yangi O'zbekiston xususida shunday dedi. "Hammamiz yaxshi tushunamizki bugun biz intilayotgan yangi O'zbekiston barpo etish uchinchi renessans poydevorini yaratish oson ish emas. Bunday ulug' vazifani sharti va mezonlar ko'p. Ammo eng muhim va hal qiluvchi omil demokratik islohotlar yo'lidir. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida zamonaviy rahbar qanday bo'lishi kerakligi haqida so'z olishdan oldin Yangi O'zbekiston so'ziga izoh bersak maqsadga muvofiq ish bo'lar edi" Bu so'z prezidentimiz ta'biri bilan aytganda har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar beradigan, odamlar o'z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo'lgan hamma uchun adolatni so'zsiz ta'minlash imkonini beradigan, hamda fuqarolarni ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida teng bo'lgan, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratiladigan davlatdir.

Har-bir mamlakatning ertangi kuni, kelajagi shu yerda unib-o'sayotgan yoshlar taqdiri bilan bevosita bog'liqdir. Albatta bugungi yosh kadr ertangi rahbardir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev "Yoshlar bizning kelajagimiz" deb bejizga ta'kidlamadi. Tashkilot muassasalarida yoshlar orasidan rahbarlar tayinlanmoqda. Bugungi kunning yoshlari har jabhada faol, intellektual rivojlangan, raqobatbardosh, fidoiy, o'z-o'zini dangal bayon eta oladigan, o'z ustida tinmay izlanish olib boradigan kadrlardir. Mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan o'sayotgan bir vaqtda, erkin raqobat va aholining turmush farovonligini ta'minlashda, tashkilot va korxonalarda boshqaruv faoliyatini samarali tashkil qilishda rahbarlik mahorati muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning rahbar yoshiga bog'liqligi rivojlangan mamlakatlar tadqiqotlariga asoslanadi. Rahbar keng dunyoqarashga va tashkilotlardagi ichki o'zaro aloqalarni va tashqi muhit bilan oxirgi o'zaro ta'siri masalalari bo'yicha fikrlash tizimiga ega bo'lishi kerak. U yuqori umuminsoniy sifatlarga va psixologik qobiliyatlarga, aqlli va ongli riskka borishni bilishi kerak. Hech kim rahbar bo'lib tug'ilmaydi, faqat o'zi – sidqidildan qilgan mehnat va uning samarali natijalari bilan shaxs o'zining rahbarlikka loyiq xususiyatini namoyon qiladi. Rahbar xodim mehnatning muhim omili - qaror qabul qilish va uni bajarishda har xil boshqaruv apparati bo'g'inlari harakatini to'g'ri yo'naltirishdan iboratdir. Zamonaviy rahbarda avvalo imij bo'lishi kerak. Imij odamlar ongida muayyan shaxs, tashkilot yoki boshqa ijtimoiy ob'ektga nisbatan yuzaga keluvchi, idrok etilayotgan ob'ekt haqidagi axborotni o'zida mujassamlashtirgan va ijtimoiy xulq-atvorga da'vat etadigan muayyan sintetik obraz. Zamonaviy rahbar imijini yaratish – bu uning yuzi, kiyinishi, qalbi, sog'lom fikri, muomala madaniyati, boshqaruvchilik san'atini mukammal egallovchi shaxs, kompetentlik: bilimi, tafakkuri, kasbiy mahorati, farosati, kamtar, xushmuomalali kabi insoniy fazilatlar, go'zallik, axloqiylik, o'git va ibrat, ustoz va shogird an'analari tayangan holda insonning nufuzini ko'tarish, obro'yini oshirish, hurmatga sazovor bo'lishdir. Vositalari: verbal, kinetik, vizual. Rahbar imijini taqdim etish – birinchi ta'surot qoldirish. Menkonsepsiyasi, qabul qilish. Vositalari: muloqot o'rnatish, tabassum qilish, qo'l siqib ko'rishish, ismi sharifi bilan chaqirish, vizitkalar bilan almashish, do'stona munosabat o'rnatishda xajviyadan foydalanish, ko'z qarashlarda so'zlarni ifoda etish. Ko'zlar inson qalbining ko'zgusi hisoblanadi. Qat'iy, o'ziga ishonch qarashlar – qat'iyatli imij sanaladi. Albatta imijning ham turlari mavjud. KORPORATIV IMIJ (kompaniya, firma, korxon, muassasa, siyosiy partiya, jamoat tashkiloti va hokazolarning imiji);

Ob'ektiv – sub'ektiv. Bu tashkilot (korxonalar, korporatsiya) faoliyatining sirtidagi ko'rinishlari sifatida tushuniladi. Bunda tashkilot (korxonalar, korporatsiya) mahsuloti, xodimlarining uniformasi va xulq-atvor uslubi, korporatsiya doirasidagi munosabatlar kiradi.

Tabiiy – sun'iy. Tashkilot imijini ikki xil usul yordamida yaratish mumkin. Birinchisi, kompaniya tovarlarini xarid qilish, xizmatlaridan foydalanish. Ikkinchisi, o'ziga vazifa “yuklash” xususiyatlariga qaratilgan.

Kognitiv – emotsional. Tashkilot imiji xayoliy obrazlar va ruhiy komponentlar yig'indisi sifatida tavsiflanadi. Xayoliy obrazlarga kognitiv jarayon tavsiflari, ya'ni eshitish va ko'rish orqali axborot olinganidan so'ng yaratiladigan obrazlar vositasida fikrlash tizimlari kiradi. Imijning emotsional jihatlariga ayni holda assotsiatsiyalar, sezgilar, ruhiy holatning shaxsiy xususiyatlari, sharoit ta'siri va hokazolar kiritiladi. Rahbardan avvalo til bilish zaruriyati, vaqti masalasi, rahbarning zamonaviy texnologiyalarini bilish qobiliyati, rahbarda rahbarlik odoblari mavjud bo'lishi kerak. Har qanday rahbar uchun bugungi kunda eng muhim muammo ish vaqtidan oqilona foydalanish hisoblanadi. Shuning uchun ham rahbarlik mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning boshlang'ich bosqichi rahbarlik tizimi xodimlariga ish vaqtidan unumli foydalanish o'rgatishdir. Yuqorida aytganimizdek vaqt tanqisligi bu har xil darajadagi rahbarlarni hammadan ko'proq tashvishlantiradigan muammolar biridir, chunki ular uchun vaqt omili odatda hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Har qanday faoliyatda rahbar o'zi rahbarlik qilayotgan sohada tajriba va yetarli bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi. Aks holda u rahbarlik qilayotgan korxonalar raqobatbardosh bo'la olmaydi va faoliyatining davomiy bo'lishi ham so'roq ostida qolishi mumkin. Zamonaviy rahbar egiluvchan bo'lsa, har qanday vaziyatda qarorlarida sobit tursa va yangiliklar hamda kelgusida kutilishi bo'lgan muammolarga tayyor tursa u deyarli barcha to'siqlarni yengib o'tishi mumkin. Optimal qarorlarni mustaqil va o'z vaqtida qabul qila oladigan rahbar o'z qo'l ostidagilarning har qanday faoliyat bilan bog'liq vazifalarni samarali bajarishlariga erishishiga muvaffaq bo'ladi deb o'ylayman. Rahbar albatta ko'pchilik bilan birga faoliyat olib boradi va o'z-o'zidan undan inson psixologiyasini yaxshi bilish talab etiladi. Inson psixologiyasini chuqur anglovchi va muomalaning yuksak madaniyati sohibi bo'lgan har qanday rahbar yuqori salohiyatga ega insonlar jamlangan birdam jamoa shakllantira oladi. Zamon bilan hamnafas rahbar hamkasblar o'rtasidagi funksiyalarni ratsional tartibda taqsimlamasa, jamoadagi birdamlik yo'qoladi va samaradorlik ko'rsatkichi tushib ketishi muqarrar. Shuning uchun ham ratsional taqsimot va ish natijalariga bo'lgan obyektiv baholash tizimi

boshqaruvda natijaviylikga erishishda muhimdir. Ko'pincha rahbar lavozimini egallaganlarning mavjud bilimlari doirasida uzoq yillar qotib qolishi singari ayanchli vaziyatlarning guvohi ham bo'lib turamiz. Zamonaviy rahbar esa o'z nomiga mos ravishda zamonga mos bo'lishi, doim izlanishda bo'lishi kerak. Rahbar o'z huquq va vakolatidan umumdavlat manfaatlarini jamoa va xodimlarning shaxsiy manfaatlari bilan uyg'un olib borishda mohirona foydalanish zarur. Ammo davlat manfaatlariga putur etkazmasdan, shaxsiy manfaatlar umum manfaatlarga bo'ysinishi lozim. Rahbar vazmin, har qanday vaziyatda hamo'zini tutabiladigan, odobli va xushmuomala bo'lishi zurur. O'z xatti- harakatini nazorat qila oladigan, kayfiyati va sezgilarini tiya biladigan, yurish turishida bo'ysinuvchilarga o'rnak ko'rsatadigan bo'lishga majburdir. Buyruq hammaga ham yoqavermaydi. Shu sababli bo'yinuvchi xodimlarga beriladigan farmoyish faqat bevosita buyruq shaklida bo'lmasdan, balki topshiriq va vazifa, maslahat tarzida ham bo'lishi kerak. Bu o'rinda quyidagi ibratli ish uslubini bilish foydadan xoli emas. Ya'ni hech qachon "Mana bu ishni unday yoki bunday qiling" yoki "Bunday yo unday qilmang" demagan. Buning o'rniga "Shu masalada bir o'ylab ko'rsangiz" yoki "Shunday qilinsa yaxshi natija beradi deb o'ylaysizmi" qabilida muomala qilishga odatlangan. Rahbar insonlarda o'ziga nisbatan iliqlik, izzat- hurmat hissini uyg'otmoqchi bo'lsa, u salbiy xislatlardan, ya'ni buyurish, ko'rsatma berish ohanglaridan voz kechib, maslahat solishi, ulardan fikr olishi kerak. Shunda uning umumiy ishga ko'proq nafi tegadi. Xulosa qilib aytganda rahbardagi odamlarni boshqarish qobiliyati, odamlar haqida g'amxo'rliqi, tashabbuskorlik, qat'iyatlik, mustaqillik, talabchanlik, bo'ysinuvchi xodimlar bilan maslahatlasha bilish, o'z so'zini ustidan chiqish kabi ijobiy fazilatlar undagi salbiy qusurlardan qutulishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Milliy mustaqillik Yangi O'zbekistonning mustahkam asosidir" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida so'zlagan nutqidan.
2. N. Boymurodov "Rahbar psixologiyasi" Toshkent 2007 y
3. O. Salimov "Boshqaruv hikmati" Toshkent 2018
4. F. Musaxonov "Rahbar psixologiyasi"